


## 2020-yil yanvar-sentabr oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida jami **13 351,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻsish surʻati 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **100,7 %** ni tashkil etdi.




### 2020-yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



### Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 7,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu binolar va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **113,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,9 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **126,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **4,3 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **121,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **45,8 %**) o'sishidir.




### Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.10.2019-yil	01.10.2020-yil	
<b>Toshkent sh.</b>	<b>6688</b>	<b>7860</b>	<b>117,5</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Bektemir</b>	<b>137</b>	<b>172</b>	<b>125,5</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>870</b>	<b>1001</b>	<b>115,1</b>
<b>Mirobod</b>	<b>576</b>	<b>696</b>	<b>120,8</b>
<b>Olmazor</b>	<b>568</b>	<b>641</b>	<b>112,9</b>
<b>Sergeli</b>	<b>430</b>	<b>543</b>	<b>126,3</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>503</b>	<b>575</b>	<b>114,3</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>892</b>	<b>1030</b>	<b>115,5</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>523</b>	<b>628</b>	<b>120,1</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>886</b>	<b>1038</b>	<b>117,2</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>700</b>	<b>811</b>	<b>115,9</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>603</b>	<b>725</b>	<b>120,2</b>



## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining tumanlar kesimida ulushi, % da (01.10.2020-yil holatiga ko'ra)



**Ma'lumot uchun:** shaharda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Yunusobod (13,2 %), Chilonzor (13,1 %) va Mirzo Ulug'bek (12,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **3 265,1** mlrd. so`mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **103,6 %**ga ko`p bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019-yilning mos davridagi ko`rsatkich darajasidan **0,4 %** punktga ko`payib, **24,4 %** ni tashkil etdi.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi, % da



**Ma`lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko`p ulushi Shayxontohur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **25,0 %**i yoki 2019-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **44%**), Mirobod (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **15,2 %** i yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan **33,2 %**) va Mirzo Ulug`bek tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **13,9 %** i yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan **90,7 %** ) ga to`g`ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2019- yil yanvar-sentabr
- 2020- yil yanvar-sentabr

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **65,2 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **3,8 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan **107,8 %** ni tashkil etgan holda **8 701,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **10,4 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan **4,2 %** punktga kamaygan yoki **1 385,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **66,4 %** ni tashkil etdi.




## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **328,8** mlrd. so'm yoki 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **53,2 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **13 023,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **103,1 %** ni tashkil etdi. Ularning shaharda tutgan ulushi mos ravishda **2,5 %** va **97,5 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-sentabr

67,2 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 67,2 % i yoki 8 969,0 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

28,1%

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 2 520,8 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 28,1% ni tashkil etdi.


62,9%

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 5 644,2 mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 62,9% ni tashkil etdi.

9,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga 804,1 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 9,0 % ni tashkil etdi.



 <b>Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-sentabr oylarida</b>			
	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Toshkent sh.</b>	<b>13 351,9</b>	<b>100,7</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Bektemir</b>	<b>608,4</b>	<b>100,2</b>	<b>4,6</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>1226,0</b>	<b>100,5</b>	<b>9,2</b>
<b>Mirobod</b>	<b>1364,7</b>	<b>101,4</b>	<b>10,2</b>
<b>Olmazor</b>	<b>1650,8</b>	<b>100,6</b>	<b>12,4</b>
<b>Sergeli</b>	<b>1246,1</b>	<b>100,3</b>	<b>9,3</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>1219,7</b>	<b>100,3</b>	<b>9,1</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>1298,4</b>	<b>100,4</b>	<b>9,7</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>1078,3</b>	<b>101,3</b>	<b>8,1</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>1424,9</b>	<b>101,5</b>	<b>10,7</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>1157,2</b>	<b>100,3</b>	<b>8,7</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>1077,4</b>	<b>100,3</b>	<b>8,1</b>

\*Tumanlar bo'yicha taqsimlangan hajmni qo'shgan holda



Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,  
% da

2019- yil yanvar-sentabr

19,0



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

19,1



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

61,9



Bino va inshootlarni  
qurish

2020- yil yanvar-sentabr

21,3



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

21,4



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

57,3



Bino va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar-joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

(% da)

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **16,3 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,7 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019-yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,5 %** punktga ko'payib, **65,6 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,1 %** punktga kamayib, **18,1 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(% da)

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **54,8 %** ni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **12,3 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **45,2 %** (**12,3 %** punktga o'sish)ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


(% da)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **5,5 %** punktga ko'paydi va **15,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **84,1 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **4,7 %** punktga kamaydi.





## Tumanlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan ulushi, % da



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Shayxontohur (tumandagi qurilish hajmining **68,5 %** ni tashkil etdi) va Mirzo Ulug'bek (mos ravishda 37,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.



**Tumanlar kesimida qurilish ishlari  
(2020- yil yanvar-sentabr)**





# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

---

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: D.Rustamov  
Aloqa telefoni: (71) 203-88-19